DAVLAT QARZI VA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MAJBURIYATLARI USTIDAN BUDJET NAZORATINI KENGAYTIRISH

Shamsiddinov Shahboz Shahobiddin o‘g’li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
Ilmiy rahbar: **PhD U. Fayziyev**

Qabul qilindi: 29.10.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.10.2026
Tasdiqlandi: 31.10.2026

Kalit so‘zlar: davlat qarzi, davlat-xususiy sheriklik, budjet nazorati, fiskal majburiyatlar, fiskal xatarlar, hisob palatasi, parlament nazorati, budjet shaffofligi.

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida davlat qarzi va davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalari bo‘yicha yuzaga keladigan fiskal majburiyatlar ustidan budjet nazoratini kengaytirish masalalari tahlil qilingan. Davlat qarzining dinamikasi, uning yalpi ichki mahsulotga nisbati, DXSH loyihalarining moliyaviy ko‘lami hamda uzoq muddatli budjet majburiyatlari bilan bog‘liq xatarlar o‘rganilgan. Shuningdek, davlat moliyasini boshqarishda shaffoflikni oshirish, fiskal xatarlarni oldindan baholash, Hisob palatasi va parlament nazoratini kuchaytirish hamda davlat majburiyatlarining yagona reyestrini shakllantirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.


Kirish. Budjet nazoratining an’anaviy qamrovi budjet daromadlari va xarajatlari bilan cheklanadi. Biroq davlatning fiskal majburiyatlari doirasi kengaymoqda: davlat qarzi, davlat kafolatlari, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) loyihalari bo‘yicha uzoq muddatli to‘lov majburiyatlari va davlat korxonalariga ajratiladigan ssudalar kelajakdagi budjet xarajatlarini oldindan belgilab qo‘yadi. PEFA metodologiyasida ham fiskal xatarlarni va qarzni boshqarish budjet nazoratining ajralmas qismi sifatida baholanadi [1].

1-jadval. **O‘zbekiston Respublikasida budjetdan tashqari fiskal majburiyatlar**

Ko‘rsatkich	Qiymati	Izoh
Davlat qarzi (01.01.2026)	46,8 mlrd AQSh dollari	2025-yilda 6,6 mlrd dollarga (+16,4%) o‘sgan
shundan tashqi qarz	39,8 mlrd dollar	umumiy qarzning 85 foizi
Davlat qarzining YaIMga nisbati	31,9%	2024-yilda 35,0% edi
DXSH loyihalari soni (01.01.2025)	1 134 ta	shundan 243 tasi 1 mln dollardan qimmat

Ko‘rsatkich	Qiymati	Izoh
DXSH portfelining qiymati	365,1 trln so‘m	93,1 foizi energetika sohasiga to‘g‘ri keladi
2026-yilda DXSH bo‘yicha budjet to‘lovlari (baho)	10,1 trln so‘m	asosan kommunal soha va nodavlat MTTlar

Manba: rasmiy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan [2; 3].



1-rasm. Davlat qarzining dinamikasi va YaIMga nisbati

Manba: rasmiy ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan [2].

Ma’lumotlar tahlili uch jihatni ko‘rsatadi. Birinchidan, qarz yuki nisbiy ko‘rsatkichda barqaror: YaIMga nisbati 35,0 foizdan 31,9 foizgacha pasaygan va qonunda belgilangan chegaradan ancha past. Ikkinchidan, qarzning mutlaq hajmi va unga xizmat ko‘rsatish xarajatlari o‘smoqda, 2024-yilda esa davlat kafolati ostida tashqi qarz jalb qilish limiti moliya yili davomida 5 mlrd dollardan 7,3 mlrd dollargacha oshirilgan [2]. Uchinchidan, DXSH portfelida sohaviy konsentratsiya juda yuqori — loyihalar qiymatining 93,1 foizi energetikaga to‘g‘ri keladi [3].

DXSH loyihalari odatda davlatning uzoq muddatli xarid kafolatlari bilan amalga oshiriladi. Bunday majburiyatlar budjetda faqat to‘lov muddati kelganda aks etadi, shu sababli yillik budjet nazorati ularni o‘z vaqtida qamrab olmaydi. Xuddi shu holat qarz limitlariga ham taalluqli: limitni oshirish qonun bilan rasmiylashtirilsa-da, bu jarayonda mustaqil ekspertiza va kengaytirilgan parlament muhokamasi nazarda tutilmagan.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi. Birinchidan, tashqi qarz jalb qilish limiti va yangi DXSH loyihalari qiymati chegarasini moliya yili davomida oshirishni faqat Hisob palatasining ekspertiza xulosasi va parlament qo‘mitasidagi ochiq muhokamadan so‘ng amalga oshirish tartibini joriy etish. Ikkinchidan, davlatning DXSH bo‘yicha bevosita va shartli majburiyatlari yagona reyestrini yuritib, uni har yili Budjetnoma tarkibida e’lon qilish. Uchinchidan, yirik loyihalar bo‘yicha shartnoma imzolanishidan oldin “pul

evaziga qiymat” tahlilini o‘tkazish va auditni loyihaning texnik-iqtisodiy asoslash bosqichidan boshlash.

Ushbu choralar budjet nazoratining qamrovini davlatning barcha fiskal majburiyatlariga kengaytirish hamda kelgusi yillar budjetlariga tushadigan yukni oldindan baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PEFA Secretariat. Framework for Assessing Public Financial Management. — Washington, DC, 2016.

2. “O‘zbekiston davlat qarzi 46,8 mlrd dollarga yetdi, davlat tashqi qarzi o‘sishi tezlashdi” // Gazeta.uz, 23.02.2026.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2026–2028-yillar uchun Budjetnoma. — Toshkent, 2025.

4. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi. 26.12.2013-y., O‘RQ-360-son. // https://lex.uz